

**2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini
“Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da
amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi to‘g‘risida
TAHLILY MA‘LUMOT**

01.10.2022y.

**III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH
VA YUQORI O‘SISH SUR‘ATLARINI TA‘MINLASH**

Dasturning 22-maqsadida: **Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirish belgilangan.**

Mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 barobar ko‘paytirish hamda 8 mlrd. AQSH dollarlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

1. **“Xomashyodan tayyor mahsulotgacha”** bo‘lgan ko‘p pog‘onali qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratishga qaratilgan **Mis sanoati klasterini rivojlantirish konsepsiyasi** xorijiy konsultantlar bilan birgalikda ishlab chiqiladi.

Bunda:

- **2022-2026 yillarda** mis xom ashyosidan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning to‘liq sikli va texnologik zanjirini yaratish bo‘yicha **“Yo‘l xaritasi”**ni ishlab chiqishni;
- mis va nodir metallar asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish zanjirini yaratish bo‘yicha **2022-2026 yillarga** mo‘ljallangan istiqbolli loyihalar **manzilli dasturini** qabul qilishni;
- mis sanoati klasteri ishtirokchilari uchun **muhandislik-kommunikatsiya** va **yo‘l-transport infratuzilmasini** yaratish nazarda tutilgan.

Hozirgi kunda **“HATCH”** konsalting kompaniyasi (Kanada) tomonidan uch tomonlama shartnoma imzolandi (2022 yil 15 mart 01/2022-son shartnoma).

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni rivojlantirish vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasining "O‘zbekiston Respublikasida mis sanoati klasterini tashkil etish va rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida"gi qarori loyihasi (ID-65186) "Olmaliq KMK" AJ tomonidan ko‘rib chiqildi va tegishli takliflar kiritildi.

2. 2022-2026 yillarda kon-metallurgiya mashinalari, texnikalari va uskunalarining yangi turlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturini ishlab chiqiladi.

Bunda, **“Navoiy KMK”** AJ va **“Olmaliq KMK”** AJ mashinasozlik zavodlari negizida kon-metallurgiya mashinalari, texnikalari va uskunalarini ishlab chiqarishni joriy etish va mahsulot turlarini kengaytirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish hamda ular uchun zarur jihozlar va butlovchi qismlarni ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Yangi mashinasozlik zavodini qurish uchun texnik-iqtisodiy asoslarini (TIA) ishlab chiqishga "O‘zog‘irsanoatloyiha" AJ bilan shartnoma imzolandi.

Yangi mashinasozlik zavodini qurish jarayonidagi muxandislik va geologik tadqiqotlar olib borish ishlari uchun "GAZ INTER SERVICE" MCHJ bilan shartnoma imzolandi;

"Hankook Machine Tool So., Ltd" (Janubiy Koreya) kompaniyasi bilan dastgohlarni ishlab chiqarish bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqilib "loyihalar va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKga tasdiqlash uchun kiritildi.

3. Kon-metallurgiya sanoati sohasida **ekologik talablar** va atrof-muhit **muhofazasi me'yorlarini** xalqaro standartlar asosida belgilash dasturini ishlab chiqiladi. Bunda: atrof-muhitga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarni ekologik talablar doirasidan oshmasligini ta'minlash dasturini ishlab chiqishni; kon-metallurgiya sanoati korxonalarida ilg'or xorij tajribadan kelib chiqib, **ekologik menejment tizimini** joriy etishni nazarda tutilgan.

Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish bo'yicha "Olmaliq KMK" AJ tomonidan ishchi guruhga mas'ul xodim birlashtirilgan.

2021 yilning 14-18 fevral kunlari ishchi guruh tomonidan "Kon-metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me'yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash" dasturi loyihasi ishlab chiqildi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi ishlab chiqildi va "Olmaliq KMK" AJ tomonidan loyiha o'rganib chiqilib o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflar kiritildi.

Vazirlar Mahkamasiing "Kon-metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me'yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2022 yil 25 avgustdagi 474-son qarori qabul qilindi.

Kon-metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me'yorlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida 22 ta xorijiy ekologik standartlar (qo'llanmalar) davlat tiliga o'girildi va standartlar agentligi tomonidan o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tgazilib amaliy tadbiq qilinmoqda.

"Olmaliq KMK AJ tarkibiy bo'linmalarida ISO 14001 xalqaro EMS standarti talablariga muvofiq atrof-muhitni boshqarish tizimini ishlab chiqish joriy etish, o'qitish va sertifikatlashgacha qo'llab quvvatlash" konsalting xizmatlarini ko'rsatish uchun 2022 yil 18 maydagi tanlov bayoniga muvofiq "ARK Systems Lab" kompaniyasi g'olib etib tanlandi. Konsalting xizmatlarini ko'rsatish va xujjatlarni xalqaro ekologik menedjment talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Joriy yilning 3 oktyabridan 30 oktyabriga qadar EMT joriy etish borasida kombinatning o'quv markazida seminar trening tashkil qilindi.

4. Mis sanoati klasteri uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish hamda sohada **tajriba-konstruktorlik** va **ilmiy izlanishlar** ko'lamini kengaytirish dasturini ishlab chiqiladi.

Bunda:

- mis klasterining kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan va zamonaviy kasb yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda **elektrotexnika, elektronika, dastgohsozlik, mashinasozlik, metallurgiya, materialshunoslik, "yashil texnologiyalar", robototexnika**, yarim o'tkazgichlar fizikasi bo'yicha yangi ta'lim yo'nalishlarida kadrlar tayyorlashni kengaytirishni;
- **muhandis, texnik** va boshqa o'rta bo'g'in ishchi-xodimlarni tayyorlash bo'yicha **professional ta'lim** o'quv dasturlarini amaliyot bilan uzviy bog'liqlikda joriy etishni;
- mis klasteri faoliyatiga bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishlari asosida **maqsadli davlat buyurtmasi portfelini** shakllantirish nazarda tutilgan.

"Mis sanoati klasteri uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish hamda sohada tajriba-konstruktorlik va ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar" dasturi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi. Dastur doirasida ilmiy izlanishlarni ko'lamini kengaytirish maqsadida "Mis sanoati klasteri uchun kadrlar tayyorlash to'g'risida" ichki buyruq qabul qilindi.

Mis sanoati klasteri uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish hamda sohada tajriba-konstruktorlik va ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirish dasturi bo'yicha – mis sanoati klasteri uchun "Olmaliq KMK" AJ korxonalarining oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojlari tahlil qilindi, buyurtmalar shakllantirildi.

Geologiya fanlari universiteti bilan yaqindan hamkorlik ishlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan memorandum imzolandi. Ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalarining mos yo'nalishlarida kombinat tavsiyasi va yo'llanmasi bo'yicha 232 nafar, shu jumladan, 56 nafar kechki va 176 nafar xodimlar sirtqi bo'limlarda ta'lim olmoqda. Kombinats tomonidan oliy ma'lumotli 62 nafar mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj shakllantirildi va iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga taqdim etildi.

Korxonalarining o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida Olmaliq kon-metallurgiya kollejida 2022-2023 o'quv yili uchun 161 nafar mutaxassisni maqsadli tayyorlashga buyurtma berildi. 2021-2022 o'quv yili davomida Olmaliq kon-metallurgiya kolleji va Olmaliq kasb-hunar maktabidan 1266 nafar o'quvchi ishlab chiqarish va diplomoldi amaliyotlarini o'tadi.

O'quv muassasalarida berilayotgan kasbiy nazariy bilimlarni ishlab chiqarishdagi amaliyotga uzviy bog'lash maqsadida, joriy yilning o'tgan 8 oyi davomida kombinat tarkibiy bo'linmalarida Olmaliq kon-metallurgiya kollejining 27 nafar ishlab chiqarish ta'limi ustasi va maxsus fan o'qituvchisining malaka oshirishga mo'ljallangan stajirovkalari tashkil etildi.

Toshkent davlat texnika universiteti va MTTU MISiSning Olmaliq filiallari professor-o'qituvchilari hamda kombinat korxonalaridan soha mutaxassislari ishtirokida mis sanoati klasteri uchun muhandis-texnik xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha 7 ta o'quv dasturlari ishlab chiqildi (foydali qazilmalarni boyitish; jihozlarga texnologik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash; er usti foydali qazilmalariga ishlov berish texnologiyasi va kompleks mexanizasiyalash; er osti foydali qazilmalariga ishlov berish texnologiyasi va kompleks mexanizasiyalash; elektr dvigatellari transformatorlari va elektr tarmoqlarini boshqarish va ximoyalashning zamonaviy usullari; mis konsentratlariga pirometallurgiyaviy ishlov berishning zamonaviy texnologiyalari; metallarga bosim ostida ishlov berish).

Joriy yil 8 oyi davomida mis sanoati klasterini rivojlantirishga aloqador bo'lgan 133 nafar muhandis-texnik xodimning malakasi oshirildi. Malaka oshirish o'quv kurslariga kombinat mutaxassislari, Toshkent davlat texnika universiteti va MTTU MISiSning Olmaliq filiallari professor-o'qituvchilari jalb qilinmoqda.

Metallurgiya sohasida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish ko'zda tutilgan:

“Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishning I-bosqichi” (“Yoshlik I konini o'zlashtirish”) investitsiya loyihasi amalga oshirish orqali:

– quvvati **60 mln tonnaga** teng **3-son mis boyitish fabrikasini** qurish va **2024 yilda** ishga tushiriladi;

- **2025 yilda** yangi metallurgiya obektlarini foydalanishga topshirish evaziga “Olmaliq KMK” AJ ishlab chiqarish hajmini **mis katodi** bo‘yicha **300 ming tonnaga** va **oltin** bo‘yicha **30,1 tonnaga** yetkaziladi.

Mis va ruhni chuqur qayta ishlash evaziga yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot turlarini ko‘paytiriladi:

- mis va rux asosida qotishmalardan tasma, folga, sim va h.k. - **10 ming tonna**;
- mis kukuni - **2 ming tonna**.

Vazirlar Mahkamasiing "2022-2026 yillarda "Olmaliq KMK" aksiyadorlik jamiyatining "Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida" 2022 yil 25 avgustdagi 473-son qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan "Olmaliq KMK" AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishning yangi konsepsiyasi" 3 bosqichda amalga oshirish taklif qilinmoqda, ya‘ni:

1-bosqichda (2020-2024 yillarda) – yiliga 60 mln tonna ma‘dan qazib olish quvvatiga ega bo‘lgan "Yoshlik I" tog‘-kon kompleksi barpo etiladi hamda yiliga 60 mln tonna ma‘danni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan 3-misni boyitish fabrikasi, mis eritish quvvatlari va mis boyitish jarayonida hosil bo‘ladigan qoldiqlarni saqlash obekti quriladi;

2-bosqichda (2022-2026 yillarda) – "Yoshlik I" va "Qalmoqqir" konlarining Birlashgan kareridan ma‘dan qazib olishni yillik 160 mln tonnaga etkazish uchun ishlar bajariladi hamda yiliga 60,0 mln tonna ma‘danni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan yangi 4-misni boyitish fabrikasi, mis eritish quvvatlari va mis boyitish jarayonida hosil bo‘ladigan qoldiqlarni saqlash obekti quriladi;

3-bosqichda (2024-2028 yillarda) – "Yoshlik I" va "Qalmoqqir" konlarining Birlashgan kareridan ma‘dan qazib olishni yillik 200-220 mln tonnaga etkazish uchun ishlar bajariladi hamda yiliga 40-60 mln tonna ma‘danni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan yangi 5-misni boyitish fabrikasi, mis eritish quvvatlari va mis boyitish jarayonida hosil bo‘ladigan qoldiqlarni saqlash obekti quriladi.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirish natijasida 2028 yilga kelib jami 230 mln tonnagacha ma‘danni qayta ishlashga erishiladi va mis ishlab chiqarish hajmi 500 ming tonnagacha, oltin – 50 tonnagacha va kumush – 280 tonnagacha etkazishga erishiladi.

Noyob metallarni chuqur qayta ishlash orqali qo‘shilgan qiymatli mahsulot turlarini ko‘paytiriladi:

- molibden o‘ta toza tuzlaridan **150 tonna** metall;
- maxsus qattiq qotishmalar - **18,5 tonna**.

Nodir metallar va qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasini 2022-2024 yillarda yillarda rivojlantirish va yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish" dasturi bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi tomonidan ma‘qullandi.

Prezidenti Administrasiyasi topshirig‘iga asosan Germaniyaning "Falk Porshe Technik GmbH" kompaniyasi bilan hamkorlikda umumiy qiymati 19,0 mln. dollarlik 4 ta loyihani to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalarni jalb qilgan holda amalga oshirish uchun muzokaralar olib borilmoqda.

"Olmaliq KMK" AJ tomonidan bajarilgan amaliy ishlar yuzasidan ma‘lumot asosiy ijrosi - iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga kiritildi. "Olmaliq KMK" aksiyadorlik jamiyatida mis va ruhni chuqur qayta ishlash evaziga yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot turlarini ko‘paytirish amaliy chora-tadbirlar" Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi.

Mis va ruxni chuqur qayta ishlash evaziga yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot turlarini ko‘paytirish maqsadida 3 ming tonna mis listini (2023 yil), 7 ming tonna mis lentasini (2023 yil), 1 ming tonna mis kukunini va 1 ming latunli kukunni (2024 yil) ishlab chiqarish yuzasidan biznes-reja ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Shuningdek, texnologiya va asosiy texnologik uskunalari etkazib berish uchun tender hujjatlari ishlab chiqilgan. Tender savdolarini o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Noyob metallarni chuqur qayta ishlash orqali qo‘shilgan qiymatli mahsulot turlarini ko‘paytirish maqsadida yiliga 400,0 tonna molibden o‘ta toza tuzlaridan metall, 5 tonna sof toza volfram tuzlari, 12,0 tonna konsevoy (uchlik) asboblari uchun qattiq qotishmalar, qattiq qotishmalardan 3,5 tonna vtulka va voloklar, 35,0 tonna volfram karbidi ishlab chiqarish tashkil etildi.

24-maqsadda Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish belgilangan.

Iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini bir birlik yalpi ichki mahsulot hisobida *20 foizga* qisqartirish ko‘zda tutilgan.

1. Yangi ishga tushirilayotgan ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlarda ifloslantiruvchi manbalarida samaradorligi 99,5 foizdan kam bo‘lmagan chang va gaz tozalash o‘rnatish tashkil qilinadi.

- Rejalashtirilgan rekonstruktsiya ishlari yuzasidan texnik loyixalar ishlab chiqilmoqda;
- Sulfat kislotasi ishlab chiqarish xajmini bosqichma bosqich (SK-6, SK-5) orttirib borish orqali atmosferaga chiquvchi SO₂ oksid gazini joriy 173,2 ming tonnadan 13,0 ming tonnaga qisqartirish ko‘zda tutilgan. Ob'ektlarni ishga tushirish muddati 2022-2025 yillar;
- Mis eritish tizimini kengaytirish va ishlab chiqarish xajmini oshirishga qaratilgan istiqbolli loyixalarda atmosferaga ta‘siri kam bo‘lgan flash smit, flash convertor texnologiyalar tanlanmoqda.

2. Xavflilik darajasi yuqori va o‘rta bo‘lgan metallurgiya, yog‘-moy, energetika va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi **24 ta** yirik korxonalarda samaradorligi **95 foiz**dan kam bo‘lmagan **144 ta** chang-gaz tozalash uskunalarini o‘rnatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari A.Ramatov tomonidan "OKMK" AJga tegishli loyihalar (105, 157-bandlar) belgilangan "O‘zbekiston Respublikasidagi yirik sanoat korxonalarida chang-gazlarni tutib qolish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlandi.

"Elektrotexbutlash-servis" MCHJ tomonidan "Olmaliq KMK" AJ ning mis boyitish fabrikasida mavjud bo‘lgan chang tozalash uskunalarini zamon talabiga mos keluvchi yangi aspirasiya tizimlarini o‘rnatish loyiha hujjatlari ishlab chiqilgan.

Loyiha asosida 17 dona aspirasiya tizimi uskunalarini xaridi amalga oshirildi.

Barcha loyihalar asosida yangilanayotgan aspirasiya tizimlarini ishlash samaradorligini 99,5 %ni tashkil etadi.

3. Atmosfera havosiga ta‘sir xavfi integratsiya qilish yuqori bo‘lgan **44 ta** sanoat korxonalarining atmosferani ifloslantiruvchi **50 ta** ustuvor manbalarida avtomatik stantsiyalar, ularga tutash hududlarda **12 ta** stasionar kuzatuv punktlarini o‘rnatish va **Yagona geoaxborot ma‘lumotlar bazasiga** integratsiya qilinadi.

Atmosferaga salbiy ta‘sir etuvchi asosiy manbalar belgilab olingan;

Aspiratsiya tizimlarida avtomatlashtirilgan uskunalar oʻrnatish dasturi ishlab chiqilgan va Ekologiya qoʻmitasiga bilan kelishilgan.

Shu bilan bir qatorda tutash hududlarda stasionar kuzatish punktlari bilan jixozlash borasida besh dona stasionar kuzatish qurilmasini xaridi yuzasidan elektron tender savdolari kiritish uchun xarid xujjatlari, texnik topshiriq va shartnoma loyihalari ekspertizadan oʻtkazish uchun iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKga kiritildi.

2022 yil 26 avgust "Olmaliq KMK" AJ mis eritish zavodi SK-4 sulfat kislota sexiga SO₂, PM ingredientlarni tahlil qiluvchi avtomatik stantsiya oʻrnatildi va maʼlumotlarni ekologiya qoʻmitasining yagona geoaxborot bazasiga integrasiyasi qilish toʻgʻrisida bitim imzolandi.

Ishlab chiqarish obektlariga tutash hududlarda stasionar kuzatish punktlari bilan jixozlash borasida stasionar kuzatish qurilmasini xaridi uchun texnik loyiha ishlab chiqilgan va uskuna xarid yuzasidan takliflar koʻrib chiqilmoqda.

4. Tabiiy suv havzalariga yoki joy relefiga oqovalar tashlovchi yirik sanoat korxonalarida **76 ta lokal oqova tozalash inshootlarini** qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish.

Angren kon boshqarmasi "Koʻch-buloq" konining kimyoviy suv tozalash inshooti loyihasi ishlab chiqilmoqda va pudrachi tashkilotlarga qoʻyilgan shart va talablar koʻrib chiqilmoqda.

Optimallashtirilgan suv tozalash uskunalari mexanizmini xaridi yuzasidan tanlov eʼlon qilingan.

MILLIY MANFAATLARDAN KELIB CHIQQAN HOLDA UMUMBASHARIY MUAMMOLARGA YONDASHISH

Dasturning 79-maqсадida Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish koʻzda tutilgan.

Atrof muhitga taʼsiri xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi obektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish.

"Yangi Angren IES" AJ va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ Mis eritish zavodining ifloslantiruvchi manbalariga namuna olish va tahlil qilish boʻyicha avtomatik stantsiyalarini tajriba tariqasida oʻrnatish. Natijada ifloslantiruvchi manbalar tashlamalari ustidan avtomat nazorat tizimi yaratiladi, inson omilisiz monitoring amalga oshiriladi, qayd etilgan ifloslanish holatlarini oʻz vaqtida bartaraf etish choralari koʻriladi.

2022 yilda Davlat ekologiya qoʻmitasi mutahassislari "Olmaliq KMK" AJ Mis eritish zavodiga ustuvor ifloslantiruvchi manbalarida avtomat oʻlchov uskunalari oʻrnatish ishlarini bajarish maqsadida obektlarni oʻrganish uchun tashrifi amalga oshirildi.

Mis eritish zavodining SK-4 sulfat kislota sexining atmosferaga chiquvchi SO₂, H₂SO₄ gazlarini avtomat nazorat oʻlchov uskunalari oʻrnatish va uskunalarning xaridi yuzasidan texnik shartlar ishlab chiqildi, hozirda xarid yuzasidan mutahasisslar tomonidan tanlov shartlari koʻrib chiqildi va "HIMLABPRIBOR" MCHJ bilan shartnoma imzolandi, uskunani keltirish va oʻrnatish muddatlari kelishib olingan.